



ALISHER NAVOIY IJODIYOTINING TURK ADABIYOTIGA TA'SIRI

Toshpulatova Zilola Rustamovna

ToshDO' TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7584014>

ARTICLE INFO

Received: 20th January 2023

Accepted: 29th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

Alisher Navoiy, Usmonli turk adabiyoti, nazira.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiyotining Onadolu adabiyotida tutgan o'rnini, Navoiy g'azallariga bitilgan naziralar, shoirlar ijodi tahlil qilinib, ularda Navoiydan ta'sirlangan jihatlari yoritildi.

XV asr va XVI asr mumtoz turk she'riyatining rivojlanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiy asarlarining o'rnini beqiyos. Bu davr adabiyoti tarixidan ma'lumki, har bir asr adabiyotining o'zining daho shoirlari bo'lgan va ular o'z uslublariga ega bo'lgan. Lekin, biror shoir ijodiga baho berilganda, taskiralarda uning qaysi shoirdan ta'sirlanganligi haqida, uslubi kimning uslubiga yaqinligiga urg'u berilgan. Adabiy ta'sir haqida gap ketganda, taskiralarda eng ko'p Alisher Navoiyga to'xtalishgan. Boshqalarga ta'sir ko'rsatgan shoirlarning muhim hususiyati» xos uslub sohiblari bo'lishlari» dir. Shohiyi Sharqiy she'rlari «Navoiy uslubi»ni eslatishi, Niyoziyning Navoiy ruhida she'rlar yozganligi, Piri Chalabiy va Azmiy Afandining «Navoiy shevasi»da she'rlar atgani va boshqa ko'plab shoirlarning Navoiyga ergashishiga sabab» xos uslub»ga e'tibor qaratganliklaridir. Yusuf Chetindag` va undan avvalgi tadqiqotchilar ilmiy maqolalari va izlanishlari natijasida XV-XVI asrlarda Onadoluda 70 ga yaqin shoirlar Navoiy g'azallariga naziralar yozishganligi aytiladi. Lekin bu shoirlarning hammasi ham Navoiy devonlarini bevosita o'qimagan holda nazira yozishgan. Masalan, Navoiy g'azallarini o'qib, Ahmad Posho bog'lagan nazirasiga, keyinchalik, Fuzuliy, Kamolposhozoda nazira bitgan. Ko'p naziralarda Navoiy ismi tilga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Onadolulik bazi shoirlar Navoiy she'rlariga nazira yozishda, shakl va mazmunda takrorga yo'l qo'yishgan bo'lsa, bazilari Navoiy she'rlarining matlasini aynan qaytarishgan. Onadolu shoirlari Navoiy she'rlaridagi musiqiylikka ham alohida e'tibor qaratadilar. Muxiy, Muxibbiy, Ibn Kamol, Jamiliylar Navoiyga ham shakl, ham mazmun jihatidan ergashib nazira yozganlar. Ahmad Posho, Najotiy, Hayoliy, Fuzuliy Navoiyga shakl jihatidan ergashib, o'z she'rlarini mazmunan boyitganlar. XI-XIX asr adabiyoti Turkiyada klassik adabiyot deb ataladi. Arab va fors adabiyoti na'munalari ta'sirida yaratilgan she'riy to'plamlarga «devon» deyildi. Shunga ko'ra bu davr adabiyoti saroy adabiyoti deb ham aytiladi. XVI asrdan esa, o'zining cho'qqisiga erishdi. O'sha davr adabiyotida shoirlar devon tuzish bilan bir qatorda munozara, taskiralalar, masnaviy, manoqib janrlarida ham qalam tebratgan. Devonlarning tartibi an'anaga ko'ra, tangri, payg'ambarlar, hukmdorlarga atalgan qasidalar, qofiyalarning alifbo tartibiga ko'ra g'azallar, ruboiylar, musammat, tarkiband, tarjebandlar, qit'alar



joylashtirilgan. Klassik adabiyotda mavzu ishq, sharob, oshiq, mashuq, din, tasavvuf bo'lganligi va for-tojik so'zlarining ko'p uchrashi kuzatiladi. Bunday so'zlar qasidalarda ko'p uchrasa ham, g'azallarda xalq tushunadigan Chig'atoy turkchasi qo'llanilgan. Yusuf Chetindag'dan oldin Fead Koprulu, Ali Nihad Tarlan, Mehmed Chavushog'lu, Osman Sertkaya, Mustafa Isan, Jemal Kurnazlar Alisher Navoiy va uning Usmonli turk she'riyatiga ta'siri haqida ma'lumotlarni o'rganib chiqdi. Ali Nihad Tarlan ham Alisher Navoiy turkiy tilni hech qaysi tildan kam emasligini va buni matijasida turkiy tilni yuksakka chiqarishga erisha olganligi va undan keyingi ijodkorlarning ham turkiy tilda nodir asarlar yarata olganliklariga sababchi Navoiy ekanligini aytib o'tadi. Bu esa, sekin-sekin turk shoirlarining endi forschada emas, turkiy tilda ham ijod qilishiga olib keldi. Navoiy bilan ko'rishgan shoirlar Basiriy, Kandi, Behishti Navoiy asarlarini ilk bor Onadoluga Basiriy olib kelganligini, Latifiy aytib o'tadi. Lekin ko'p olimlar Basiriyning olib kelganligini, yana boshqa olimlar Navoiy Boyazidga o'zi jo'natganligini aytishadi. Mahdud Posho Navoiy bilan maktublashib turganligi, Navoiy yoshlik chog'laridayoq Onadoluda taniqli bo'lganligini bildiradi. Onadoluda Navoiyni tanigan va unga nazira bog'lagan Jamiliy ham bor. Jamiliy aslida turkman bo'lib keyinchalik Onadoluga kelib qolgan. Navoiyga nazira yozar ekan, Chig'atoy turkchasida ijod qilganligi aytib o'tiladi. Shoh Mehmed Kazviniy ham Navoiyga naziralar bog'lagan va «Majolis un nafois» taskirasini forschaga tarjima qilib, uni Sulton Selimga sovg'a qiladi. Navoiyning yana bir izdoshi Fuzuliydir. Fuzuliyning she'rlarida Navoiy uslubiga o'xshashlik borligini aytib o'tadi. Kotibiy taxallusli Seydi Ali Reis ham Navoiyga naziralar bog'lagan. Hindistonga borgan paytlari Navoiy asarlari bilan yaqindan tanishadi. Hatto «Navoiy-i soniy» maqomini ham oladi. Yana bir usmoniy shoirlardan Baxti Navoiyga ikki nazira yozadi. XV asrda Hirotda Jomiy va Navoiy davrida muammo janrida ham ko'p ijod qilindi. Undan so'ngra XV asrda bu an'ana Onadoluda Mustafo Sururiy, Lamiy, Muhyi-Gulshaniy tomonidan davom ettirildi. Bu esa, Jomiy va Navoiy ta'sirida bo'ldi. Ahdiy muammo janrida Alisher Navoiyga o'xshashini xohlashini shunday izohlaydi:

«Nazm u inşada bı-nazır ve hall-i akd-ımu`ammada pir ve Mir Ali Şir ulumı külliyyatü cüziyyatı gereği gibi zabt itmişler». Ushbu jummalarni Yusuf Chetindag' dessertatsiyasida ham takidlab o'tadi. XV-XVI asrlarda Onadoluda ijod etgan va devon tuzgan yoki, masnaviy yozgan har bir shoir Navoiydan va Jomiydan ta'sirlanganligini aytgan. XV-XVI asrda Onadoluda yozilgan masnaviylarni Jomiy va Navoiyga nazira edi desak bo'ladi. Jemal Kurnaz O'rta Osiyodan Onadoluga 87 ta shoirning kelganligini aytadi. Jemal Kurnaz O'rta Osiyoning turli yerlaridan Onadoluga kirib kelgan shoirlarning asrlarga qarab jadval tuzadi. Bu XIII asrdan XX asrlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, XVI asrda eng ko'p shoirlar Onadoluga kelganliklarini aniqlashgan. Yuqorida aytilgandek bu shoirlar ichidan Fuzuliy Navoiyning

Sochti terdin gul uza ul sarvi gulruksor su,

Qo'ymagil da'figa qildi o't uza ishor su.

«Su» radifida g'azal yozishni ilk marta Navoiy boshlab, Fuzuliy uni davom ettirgan. Bu bilan Fuzuliy juda katta olqishga sazovor bo'lgan. Keyinchalik o'sha she'r «Su qasidasi» nomi bilan mashhur bo'ladi. Unga qator naziralar yoziladi. Ularning deyarli hammasida Fuzuliyga ergashish shundoq sezilib turadi. Lekin Navoiy bilan Fuzuliy orasida radif va vazndan tashqari aniq o'xshashliklar ham bor. G'aal ham, qasida ham, «sochmoq» fe'li bilan boshlangan. Navoiy «sochti» desa, Fuzuli «sochma» deydi. Shuningdek Navoiy «Sochti terdin gul uza...su» desa,



Fuzuliy «Saçma ey göz eşkten gömglümdeki odlara su»degan. Ya`ni, Navoiy gul ustiga sochilgan suvdan so`z ochsa, Fuzuliy ko`ngildagi otash ustiga sepilgan suvni nazarda tutadi. Shu bilan birga, har ikki shoir ikkinchi misralarida ham bir-biriga yaqin ifodalarni qo`llaydi. Navoiy «Kuymagim dafig`a qildi o`t uza izhor su» deb yonayotgan otashni, suv so`ndirishini so`zlasa, Fuzuliy «Kim bu denli tutuşan odlara kilmaz çare su» deya bu otashga su chora bo`lmasligini takidlaydi. Shu tarzda har ikki misrada ham, u Navoiyga zid gaplarni ilgari suradi. Shoirlar tomonidan Navoiy she`rlariga bitilgan ko`plab naziralarni ko`rish mumkin. Bu mavzuda tadqiqot olib borgan turk olimi Yusuf Chetindag` va o`zbek tadqiqotchilaridan Rohila Ruzmonovaning doktorlik dissertatsiyalari ham, bu mavzuni o`z ichiga qamrab olganligini ko`ramiz. Shoh shoir Avniy ijodini kuzatgan Yusuf Chetindag o`z tadqiqotida, Avniyning devonida jami 72 ta g`azal bo`lib, ulardan 8 tasining asosiy matni Navoiyni eslatishini yozadi. Avniyning naziralari Navoiy g`azali bilan har jihatdan o`xshash. Ifoda usuli, qofiya va mazmun jihatidan farq yo`qligi kuzatiladi. Navoiyning « Farxod va Shirin» dostonining ham ta`siri ko`p bo`ldi. Alisher Navoiy turk shoirlari nazarida benazir ijodkor edi. Shu bois, u Ahmad Posho bilan bir qatorda, Fotih Sulton Muhammad, Ja`far Chalabiy, Mahmud Posho, Qonuniy Sulton Sulaymon, Kamolposhozoda, Muhiy, Hayoliy, Boqiy, Nadim, Shayx G`olib kabi shoirlar uchun chinakam ustoz maqomida bo`lgan. Oshiq Chalabiyning e`tiroficha, Ahmad Posho bir nazirasida Navoiyni yuksak so`zlar bilan ta`riflaydi va she`riyat mulkinging shahanshohi deydi.

References:

1. Chetindag`.Y Alisher Navoiy Toshkent , Muharrir nashriyoti
2. Chetindag` . Y. Alisher Navoiy va Usmonli turk adabiyoti Toshkent Muharrir nashriyoti
3. Alimbekov.A. Turk adabiyoti tarixi Toshkent-2005
4. Bekturdiyeva Adolar Usmoniylar davri turk va o`zbek adabiyotida taskira janri rivoji Toshkent2021 magistrlik dissertatsiyasi .
5. Chetindag`. Y. Alisher Navoiyning Botu turkchasi devan adabiyotiga ta`siri doktorlik dissertatsiyasi ,Ankara-2002
6. Mehmet Chavusho`g`lu onadolida Navoiy ta`siri maqolasi Bahar 2011.8-sahifa .
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy